



**XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING
QARORI**

2022 - yil 25 - yanvar

VI-53-17-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

**Tuman mahalliy budgetining 2022-yil boshiga saqlangan erkin qoldiq
mablag'i hisobidan ajratiladigan mablag'lar to'g'risida**

Bulung'ur tumani 4-sektor rahbari Sh.Eshmurotovning Xo'jabachcha mahallasi Doniyorstepta qishlog'ida 90 ta xonodonga toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida artizan qudug'ini ta'mirlash va bitta transformator ajratish uchun 17,5 (o'n yeti million besh yuz ming) mln.so'm miqdorida mablag' ajratish to'g'risida"gi xatini o'rganib chiqib, tuman hokimligi Moliya bo'limi mudiri J.Narziyevning tuman mahalliy budgetining 2022-yil boshiga saqlangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan ajratish to'g'risida"gi 2022-yil 19-yanvardagi 01/02-38-17-sonli, 2022-yil 20-yanvardagi 01/02-38-19-sonli, 01/02-38-20-sonli, 01/02-38-21-sonli hamda 2022-yil 21-yanvardagi 01/02-38-22-sonli xatlarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuning 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining LIII sessiyasi

QAROR QILADI:

1.Tuman hokimligi Moliya bo'limi mudiri J.Narziyevning 2022-yil 19-yanvardagi 01/02-38-17-sonli, 2022-yil 20-yanvardagi 01/02-38-19-sonli, 01/02-38-20-sonli hamda 01/02-38-21-sonli xulosa xatlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bulung'ur tumani hokimining birinchi o'rinosari (D.Xabibullayev), tuman hokimligi Moliya bo'limi (J.Narziyev), tuman g'aznachilik bo'linmasi (E.Niyozov)larga:

Xo'jabachcha mahallasi Doniyorstepta qishlog'ida 90 ta xonodonni toza

ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida artizan qudug'ini ta'mirlash va bitta tronsformator ajratish uchun 17,5 (o'n yeti million besh yuz ming) mln.so'm;

mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'limining faol tadbirkorlarni taqdirlashga faxriy yorliq uchun 14,2 (o'n to'rt million ikki yuz ming) mln.so'm;

tumandagi sharoiti og'ir hamda Obod qishloq dasturiga kiritilgan mahallalarda obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun (ohak va dizel yoqilg'isi) sotib olish uchun 80,0 (sakson million) mln.so'm;

tuman hokimligi axborot xizmati rahbari A.Jabborovning ish faoliyatini samarali bajarish uchun moddiy texnik bazasini yaxshilash maqsadida 20,0 (yigirma million) mln.so'm;

tuman hokimligining aparat, texnik xodimlari hamda xalq deputatlari tuman Kengashining kotibiyati xodimlarini rag'batlantirish uchun 2022-yil 1-choragi uchun 290,0 (ikki yuz to'qson million) mln.so'm;

tuman mahalliy budjetining 2022-yil boshiga saqlangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan jami 421,7 (to'rt yuz yigirma bir million yeti yuz ming) mln.so'm mablag' ajratilsin.

3.Tuman hokimligining hisobchisi (F.Abduganiyeva)ga belgilangan mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlasin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov) hamda tuman hokimining birinchi o'rinosari (D.Xabibullayev) zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi



N.Mamadiyarova